



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University


4/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2024

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2024, № 4, aprel**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS**

**TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Safarov F.S.</b>	O‘zbek adabiy tilida ko‘plik ma’nosining ifodalanishi va tejamkorlik	<b>4</b>
<b>Akhmedova R.A.</b>	Antropocentric aspect of phraseological units with the component "red"	<b>12</b>
<b>Alieva N.X., Mukhtoraliyeva F.A.</b>	The role of translation in the enrichment of languages: analysis of some neologisms presented in «Steve Jobs» by Walter Isaacson	<b>17</b>
<b>Barnoyeva Z.S.</b>	O‘zbek leksikografiyasida boshlang‘ich sinf o‘quv lug‘atlarini tuzishning ahamiyati	<b>22</b>
<b>Barotova N.Sh.</b>	O‘zbek kinodiskursida “milliylik” obrazini yaratishning tamoyillari	<b>27</b>
<b>Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.</b>	Concept of term definition and its characteristics	<b>32</b>
<b>Kurbonova G.S., Pulatova U.B.</b>	Frazeologik konsepsiyalar talqini	<b>37</b>
<b>Jumayev E.B., Nurullayeva G.X.</b>	O‘zbek va nemis tilida shaxs ifodalovchi vositalar	<b>45</b>
<b>Raxmonova Y.X.</b>	Matn tili va tarjima muammolari	<b>50</b>
<b>Ro‘ziyev Y.B., Halimova Sh.Sh.</b>	O‘zbek va nemis tillarida o‘tgan zamonning voqelanishi	<b>55</b>
<b>Turayeva D.M.</b>	Muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishi va punktuatsion tizimdagi yangi an‘analar	<b>61</b>
<b>Xodjayeva D.I.</b>	Lingvodidaktik terminologiya tadqiqot obyekti sifatida	<b>65</b>
<b>Yaqubova M.M.</b>	Tarjima jarayonida asl matnning semantik va pragmatik jihatlarini saqlash masalalari	<b>70</b>
<b>Ахмеджанова С.Дж.</b>	Сбор и анализ корпусных данных для узбекского и русского языков	<b>76</b>
<b>Жўраева И.А.</b>	Инглиз ва ўзбек антропонимик луғатларида атоқли отларнинг берилиш усуллари	<b>81</b>
<b>Шермухамедова Н.А.</b>	Двуязычный и многоязычный устный корпус	<b>87</b>
<b>Qobilova N.S.</b>	Til tejamkorligi nazariyasining tadqiq qilish tamoyillari	<b>92</b>
<b>Qodirova H.X.</b>	Badiiy diskurs tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuv	<b>98</b>
<b>Yuldasheva F.E.</b>	Expression of the modesty maxim in communication	<b>102</b>
<b>Рабиева М.Ғ.</b>	Эвфемизмларнинг дискурсив турлари ва уларнинг таржима стратегияларини белгилашдаги роли	<b>106</b>
<b>Ataeva G.B.</b>	The power of idioms in business English: communicating with impact	<b>117</b>
<b>Karimova D.H.</b>	Tarjimada variantlilik hodisalarining asosiy belgilari xususida (Aka-uka Grimm ertaklarining o‘zbekcha tarjimalari misolida)	<b>122</b>



TIL TEJAMKORLIGI NAZARIYASINING TADQIQ QILISH TAMOYILLARI

*Qobilova Nargisa Sulaymonovna,*  
*Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD*  
*nargisaqobilova7772@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so'zlashuv nutqining til o'zgarishlariga ta'siri va tilning o'zgaruvchanligi, tejamkorlik tamoyili hamda tejamkorlik va notejamkorlik masalalari yoritilgan. Til bu murakkab dinamikaga ega tizim bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Til tizimining adaptivlik xususiyati uning tarkibiy tuzilmalarida va undan foydalanish usullarida muntazam moslashuvchi o'zgarishlarga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, tamoyil, og'zaki nutq, tejamkorlik tamoyili, tadqiqot, nutq faoliyati, moslashuvchanlik.

ПРИНЦИПЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕОРИИ ЭКОНОМИИ ЯЗЫКА

**Аннотация.** В этой статье рассматривается влияние разговорной речи на языковые изменения и языковую изменчивость, принцип экономии, а также вопросы экономии и неэкономии языка.

Язык — сложная динамическая система, которая по своей сути изменчива. Приспособляемость языковой системы создает основу для регулярных адаптивных изменений её структурных компонентов и способов её использования.

**Ключевые слова:** языкознание, принцип, устная речь, принцип экономии, исследование, речевая деятельность, адаптивность.

RESEARCH PRINCIPLES OF THEORY OF LANGUAGE ECONOMY

**Abstract.** This paper discusses the influence of colloquial speech on language change and language variability, the principle of economy, and the issues of economy and non-economy of language.

Language is a complex dynamic system which is inherently changeable. The adaptability of a language system creates the basis for regular adaptive changes in its structural components and ways of its use.

**Keywords:** linguistics, principle, oral speech, economy principle, research, speech activity, adaptability.

**Kirish.** Tilga ta'rif berilar ekan, hali hanuz yagona xulosa olimlar tomonidan e'tirof etilmaganligini qayd etgan holda, A.Martine "til - bu muayyan maqsadga xizmat qiluvchi ifoda vositalari tizimi" deya ta'kidlaydi. Bunda maqsad deganda, avvalambor, aloqa o'rnatish nazarda tutiladi. Shunday ekan, til tizimini funksional tushunish, uning ma'lumot yetkazish vositasi sifatida e'tirof etilishi tilning muloqot quroli ekanligidan kelib chiqadi. "Aynan kommunikatsiya, ya'ni barchaning o'zaro bir-birini tushunishi, til deb nomlanuvchi qurolning asosiy vazifasini tashkil etadi" - deya e'tirof etadi A.Martine.

Bevosita og'zaki kommunikatsiyaning eng tarqalgan ko'rinishi - bu ikki va undan ortiq shaxsning o'zaro suhbatini hisoblanadigan dialogdir. Uning vazifasiga suhbatda ishtirok etayotgan so'zlovchining fikr va his-tuyg'ularini tinglovchiga so'z yordamida ifoda etish kiradi. Kitobiy yoki badiiy sayqallangan yozma nutq ma'lumotni oldindan tayyorlangan holda yetkazadi. A.Smirtitskiy til hamda nutq o'rtasidagi munosabatni sharhlar ekan, inson nutqiga oid umumiy tushunchaga keng mazmunli ta'rif beradi. Uning fikricha, "inson nutqi umuman olib qaralganda, son-sanoqsiz, cheksiz nutq aktlarining mahsulidir, uning turli ko'rinishlarida aynan bir xil komponentlar va bu komponentlarning aloqa nutqida aynan bir xil qonuniyatlar asosida ishlatilishi namoyon bo'ladi. Rango-rang nutq ifodalari majmuasi va bu komponentlarning qo'llanilish qonun-qoidalari jamlanmasi muayyan tizimni yaratadi, boshqacha aytganda, bu bir-birini taqozo etuvchi va bir-biri bilan bog'langan birliklar va ularning o'zaro munosabati yig'indisidir. Mazkur birliklar tizimi esa tildir".

So'zlashuv nutqi va kitobiy nutq bir-biri bilan solishtirilishi natijasida bir qator lisoniy oppozitsiyalar namoyon bo'ladi, bunda substrat sifatida ikki xil omil xizmat qiladi - nolingvistik va lingvistik.

Nolingvistik omil sifatida dialogik nutqning o'z vazifalarini amalga oshirish shartlari, aynan, muayyan muhit, tor doirali tematika (aksar hollarda), sharoitning ravshanligi, qisqa vaqtda javob qaytarish zaruriyati, suhbatdoshining nutqni (qisman) eshitish va ko'rish qobiliyatini misol qilib keltirish mumkin.

Lingvistik omillar guruhiga esa tildagi analogiya, tejamkorlik va intonatsiya hodisalari kiradi.

Nutqning (masalan, dialogik) qanday til vositalarini tanlash qobiliyati, shuningdek, so'zlovchining o'z fikri va xis-tuyg'ularini ifodalashda muayyan ta'sirga erishishga intilishi, og'zaki ma'lumotning yetkazilishi va qabul qilinishi vaqtida inson psixikasida kuzatiladigan bir qator jarayonlarga, so'zlovchining shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq.

Umuman olganda, lisoniy muloqot – yetkazilayotgan ma'lumotlarda mazmunning biror semantik cheklovlarsiz ko'p qirraliligi bilan xarakterlanadi. Lisoniy muloqotning vositasi sifatida tilni o'rganish muhim ahamiyat kast etadi. A.Martine ta'kidlaganidek, "til bu hamma narsani gapirish qobiliyatidir", ya'ni mazmun mundarijasining umumiy va xususiy, mavhum va aniq, ratsional va emotsional, nuqul xabar mazmunidagi va tinglovchini harakatga keltiruvchi, bevaqt va oniy, va shunga o'xshash boshqa ko'rinishlaridir.

**Asosiy qism.** Tilning funksional turlari (bu yerda so'zlashuv va kitobiy nutq xususida so'z bormoqda) orasidagi lisoniy tafovutlar leksik sathda va grammatik vositalardan – sintaktik konstruksiyalar, gaplar, muayyan grammatik shakllardan foydalanish jarayonida namoyon bo'ladi. So'zlashuv chog'ida u yoki bu grammatik forma muayyan holatda eng to'g'ri, aynan mos keluvchi ekanligini tanlashga vaqt bo'lmagani bois "tanlab olish uchun mumkin qadar tez va oson shakl"dan foydalanishga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, lisoniy vositalarni tanlash jarayonida tilning barcha leksik-grammatik vositalaridan miqdor jihatdan to'liq foydalanilmasligi tildagi mavjudlaridan "erkinroq qo'llash" imkoniyatiga ega bo'lgani va yangi shakllarning paydo bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi.

Muloqotning og'zaki nutq shaklidan farqli o'laroq, yozma nutqda lisoniy vositalarni tanlash imkoniyati erkinroqdir. Bunda suhbatdoshning va kundalik kontekstning bo'lmagani, fikrni shakllantirish va uni kerakli usulda ifodalash uchun yetarlicha vaqt borligi kitobiy nutqning, ya'ni til me'yorlaridan, qabul qilingan usullardan lisoniy vositalarni atroflicha tanlab oladigan nutqning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Adabiy til me'yorlari (badiiy adabiyotda foydalaniladigan va namuna sifatida olinadigan til) nuqtayi nazaridan so'zlashuv nutqining ayrim shakllari "vulgarlik" kasb etadi. Biroq bu "vulgar shakllar" tilning obyektiv realligini aks ettiradi va ko'p hollarda adabiy tilga ham kirib borib mustahkam o'rinish ham oladi.

So'zlashuv nutqi tilda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Jonli so'zlashuvdagi nutqqa xos bo'lgan konstruksiyalar, shakllar, va so'zlardan faol foydalanish adabiy nutqni rivojlantiradi va mukammallashtiradi, ya'ni tildan foydalanish va ijtimoiy jarayonlar shartlari ostida sodir bo'ladigan "noto'g'ri shakllar" shaksiz tilning holatiga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham nutq faktlariga yetarlicha e'tibor bermagan bir qator tilshunoslar ham keyinchalik ularga jiddiy qaray boshlashdi. Jumladan, bu jarayon F. de Sossyurning ilmiy izlanishlari bilan boshlanib uning mashhur izdoshi Sh.Balli tomonidan davom ettirildi.

Demak, til va nutqning o'zaro munosabati lisoniy o'zgarishlarga sabab hisoblanadi. Til va nutq o'rtasidagi tafovutlardan biri esa til - invariant birliklar tizimi bo'lsa, nutq (ya'ni, alohida son-sanoqsiz nutq aktlari) doimo til strukturasi variantli voqelanishini namoyon etadi. Nutqning biror muayyan birligiga bir qator individual variantli voqelanishlar muvofiq keladi.

**Tadqiqot metodi.** Istalgan tilning tarixini kuzatar ekanmiz unda doimiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga guvoh bo'lamiz: nimadir paydo bo'ladi, nimadir esa yo'qolib qoladi. Shu o'rinda I.A.Boduen de Kurtenening fikrlari e'tiborga loyiq: "Tilda hech narsa turg'un emas...Tilda, umuman, tabiatda bo'lganidek, hamma narsa hayot kechiradi, hamma narsa o'zgarib turadi. Sokinlik, barqarorlik, harakatsizlik - bular bizga shunday tuyuladigan hodisalardir, minimal o'zgarishlar sodir bo'lishi sharti ostidagi yakka tartibdagi voqeliklardir".

Bularning bari harakat va turg'unlikning dialektik yaxlitligidan dalolat beradi. Bir tomondan, har bir til muayyan ma'noda tugallangan: undagi barqarorlik va individual o'ziga xosligi aynan shu bilan izohlanadi. Biroq nutq jarayonida til faqat ifodalaniygina qolmay, balki o'zgaradi ham. Tilning o'zgaruvchanligini har bir individ nutqiy faoliyatining erkin xarakterda ekanligida ko'ramiz.

Til evolyutsiyasi haqidagi o'z tadqiqotlarida I.A.Boduen de Kurtene "tadrijiy" rivojlanish tamoyiliga, lisoniy jarayonlardagi vaqtinchalik moslashuvga diqqatini qaratadi.

Shunisi ahamiyatliki, Boduen de Kurtene lisoniy o'zgarishlarni ruhiy va fiziologik energiyadan foydalanish va ularni taqsimlash bilan barobar bog'laydi, ya'ni til tejamkorligi tamoyilini e'tiborga oladi. Bu esa tasodif emas, chunki til evolyutsiyasi muammosi va shunga bog'liq holda tildagi evolyutsiya prinsipi I.A.Boduen de Kurtene ilmiy izlanishlarida asosiy o'rinni egallaydi. Olim tomonidan lisoniy rivojlanish va aqliy va jismoniy energiya tejamkorligi masalalari har taraflama ko'rib chiqiladi.

**Muhokama.** Tildagi o'zgarishlar bir tekis, oldindan qo'yilgan maqsad natijasi sifatida ro'y bermaydi, ular soddalashtirishga intilishning zaruriy davomi shaklida namoyon bo'ladi. Boduen de Kurtenening ta'kidlashicha, "Lisoniy shakllarni soddalashtirish, tilda bir xil turdagi shakllarning borligi, shakl va mazmun, so'z va fikrlar o'rtasida nisbatan moslik bu ilgaridan belgilangan maqsadga intilish natijasida emas, faqat nutq jarayonini yengillashtirish uchun ong ostida sodir bo'luvchi mnemotexnik vosita sifatida, ortiqcha harakatlarni bartaraf qilish vositasi sifatida amalga oshiriladi". Ushbu fikrlar so'zlovchining nutq apparatining ortiqcha, keraksiz ishini bartaraf qilish va aloqa jarayonini yengillashtirishga intilishi bilan bog'liq bo'lgan til tejamkorligi tamoyilining mohiyatini o'zida aks ettiradi. Bu orqali I.A.Boduen de Kurtenening til tejamkorligiga oid asosiy nazariy kredosini yaqqol namoyon bo'ladi. "Lisoniy o'zgarishlarning umumiy sabablari" nomli tadqiqotida I.A. Boduen de Kurtene til harakatining 3 xil yo'nalishini belgilab beradi:

- 1) markazdan tashqariga harakat;
- 2) tashqaridan markazga tomon;
- 3) lisoniy tafakkur.

Shundan kelib chiqib quyidagicha xulosa ilgari suriladi: modomiki tildagi har qanday o'zgarishlar kuch sarflanishining tejamkorligi, intilish va harakatlarning maqsadga muvofiqligi sababli sodir bo'lar ekan, inson aqlining faoliyati yuqorida ko'rsatilgan 3 yo'nalish quyidagilardan birining tejamkorligi samarasi o'laroq sodir bo'ladi: 1) talaffuz 2) tinglash 3) markaziy miya faoliyati. Boduen de Kurtene tomonidan ko'rsatib o'tilgan til faoliyati va til o'zgarishlariga oid mazkur 3 yo'nalish bir xil natijaga erishish uchun bir-biri bilan har zamon kesishib turadi. Shu sababli qaysi nutq akti bo'lmasin, barchasida lisoniy faoliyatning shu uch yo'nalishi namoyon bo'ladi.

Til rivojlanishi ichki omillarning sezilarli roliga oid mazkur g'oyalar keyinchalik B.A.Serebrennikov tomonidan davom ettirildi: "Tovush va shakllarning o'zgarishi har doim ham to'g'ri chiziqli xususiyatga ega emas. Lisoniy o'zgarishlar jarayonida bir til tizimi doirasidagi ichki faktorlar katta rol o'ynaydi. Analogiya ta'siri, asoslarning o'zgarishi, muayyan asoslar va ularning shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va b. - mazkur omillarning bari inobatga olinishi shart".

I.A.Boduen de Kurtenening lingvistik qarashlariga psixologik yo'nalish ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Garchi u tilning mavjudligi va taraqqiyotini faqat psixologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida tushuntiradi: "Modomiki, til faqat insonlar jamiyatida bo'lishi mumkin ekan, biz ruhiy tomondan tashqari ijtimoiy tomonini ham doim nazarda tutishimiz kerak. Tilshunoslik asosini nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tashkil etishi lozim". Yana bir boshqa joyda I.A.Boduen de Kurtene shunday yozadi: "O'z mohiyatiga ko'ra, tilshunoslik psixologik va sotsiologik fandır". Boshqa olimlar qatori A.Martine ham tilning to'xtovsiz rivojlanishda ekanligi va bu jarayonda leksik, fonetik va grammatik o'zgarishlar sodir bo'lishi haqida yozadi. Bunda til nutq jarayonida nafaqat jismoniy balki aqliy harakatlarni minimum darajaga keltirishga intiladi. O'zidan oldingi tadqiqotchilardan farqli holda A.Martine lisoniy o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida insonning muloqot ehtiyojlari va jismoniy hamda aqliy harakatlarni minimum darajaga keltirishga intilish o'rtasidagi doimiy ziddiyatga e'tibor qaratadi.

Til evolyutsiyasi nazariyasi va undagi tejamkorlik prinsipi asoschilaridan yana biri A.A.Potebnya nomini tilga olish mumkin. Uning quyidagi aniq konseptsiyasi masalaga yanada oydinlik kiritadi:

1. Til doimo rivojlanish jarayonida bo'ladi, buning ustiga, Potebnya ta'kidlaganidek, eskini vayron qilish ayni vaqtida yangini barpo etishdir. Bundan tashqari, lisoniy o'zgarishlar olimning fikricha "hali hamon yangilanishdan to'xtamagan holda davom etmoqda".

2. Xuddi O.Yespersen kabi til evolyutsiyasida mavhumlikni kuchaytirishga bo'lgan intilishni kuzatishdan tashqari, A.A.Potebnya ayni paytda uning aniq hodisalarni ifodalash qobiliyatining rivojlanishini ham qayd etib o'tadi.

3. A.A.Potebnyaning lisoniy konseptsiyasida grammatik (fonetik) o'zgarish masalalari katta o'rin egallaydi.

4. Tildagi u yoki bu tovush va shakllarning asta-sekinlik bilan yo'qolib borishini A.Potebnya "ichini bo'shatish" deb ataydi.

5. Garchi A.Potebnya tomonidan tejamkorlik tamoyili atama sifatida tilga olinmagan bo'lsada, aynan tejamkorlik tamoyili bilan bog'liq masalalarni bir nechta til sathlarida (fonetik, grammatik, grafik) hal qiladi. A.A.Potebnya tomonidan yuqorida qayd etilgan muammolarning ishlab chiqilishi keyinchalik (I.A.Boduen de Kurtene, Ye.D.Polivanov tadqiqotlarida) tejamkorlik tamoyili deb nomlanuvchi masala yechimiga o'z hissasini qo'shdi va til evolyutsiyasidagi yetakchi omillardan biri sifatida to'liq ilmiy-nazariy asosga ega bo'ldi.

Til evolyutsiyasiga oid fikrlarini jamlagan holda, I.A.Boduen de Kurtene tildagi o'zgarishlar mushaklar va markaziy miya harakatini tejashga intilish natijasida sodir bo'lishini ta'kidlaydi.

Shuning bilan birga quyidagi fikrlarni qayd etib o'tadi: "Haddan tashqari yuzaki chizilgan til o'zgarishlari suratida yana bir mulohazani qo'shib qo'yishim kerakki, bu o'zgarishlar doimiy va cheksizdir; turli zamonlarda va turli joylarda bir biridan mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda, balki barcha insonlarning faqat psixik va jismoniy tuzilishiga ko'ra doimiy o'xshashligi asosida, shuningdek, til rivojiga ta'sir etuvchi sharoitlarning tasodifiy o'xshashligiga bog'liq holda ular bir xil takrorlanadi; bu o'zgarishlar tilning tarixiy uzluksizligi jarayonida yangi shakllarning uzluksizligini ta'minlabgina qolmay, bir maromda rivojlanayotgan tilni bir nechta qarindosh tillarga bo'linishiga, shuningdek butun tizimning, ya'ni til strukturasi qayta yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar beto'xtov va abadiydir, zero ularni yuzaga keltiruvchi sabablar beto'xtov va abadiydir".

Xullas, I.A.Boduen de Kurtene boshqa yirik olimlar qatorida o'z asarlarida til evolyutsiyasi jarayonida tadrijiylik va vaqt ketma-ketligi mavjudligini qayd etib o'tadi. Buning ustiga tildagi o'zgarishlarni I.A.Boduen de Kurtene nutq tejamkorligi tamoyili bilan bog'laydi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tilshunoslik tarixida birinchi bo'lib, Boduen mazkur muammo yechimida bir tomonlama yondashmadi, u tilda nafaqat tejamkorlik prinsipi ishlashini balki, aynan fonatsion, auditsiyali, va fikrlash tejamkorligi borligi va ularning o'zaro aloqasini belgilab berdi.

Tejamkorlik tamoyili nazariyasining mohiyati axborot yetkazish tezligi (yanada kengroq olinganda, inson faoliyatida aynan nutq jarayonini tashkil etuvchi), xotira hajmi va qabul qilish tezligi bilan belgilanadi. Mazkur nazariya tildagi notejamkorlik (ortiqchalik, redundantlik) nazariyasi bilan uzluksiz aloqada tahlil qilinadi. Jumladan, leksikada bir-birini takrorlovchi komponentlarni (dublet so'zlar, absolut sinonimlar) kuzatamiz. Til tizimi bunday ortiqchalikni bartaraf etishga intiladi. Notejamkorlik esa tizimga zid keladi va ushbu ziddiyatning yechimi tizim harakatining ichki turtkilaridan biri hisoblanadi, chunki ortiqchalikning bo'lishi har bir sinxron tilga xos tabiiy, qonuniy, muqarrar hodisadir.

Notejamkorlik haqida ilk bor I.A.Boduen de Kurtene so'z yuritadi. Ungacha mazkur hodisa xususida faqatgina O.Yespersen (qisman G.Paul tadqiqotlarida) kuzatish mumkin. O.Yespersendan boshqa Boduengacha hech kim bu hodisaga e'tibor qaratmadi. Hatto O.Yespersen ham notejamkorlik haqida shunchaki fikr bildirgan. Undan farqli o'laroq Boduen o'z ishlarida bu muammoga jiddiy e'tibor qaratgan holda atroflicha yondashadi. Uning ta'kidlashicha, ortiqchalik tildagi funktsional yukka ega bo'lmagan elementlar, xususan, qo'shimchalarning bartaraf qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, Boduen ortiqchalikni bartaraf qilishga intilishning bo'lishiga qaramay tilda hali ko'plab eskilik sarqitlari, funktsional to'liq yuklanmagan shakllar mavjudligini qayd etadi. Shuni ta'kidlash joizki, I.A.Boduen de Kurtening muammo yuzasidan olib borgan tadqiqotlariga qaramay tejamkorlik va notejamkorlik tamoyillari o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi to'liq yoritilmagan edi.

Tejamkorlik va notejamkorlik o'rtasida qandaydir aloqa borligini J.Vandries ham ta'kidlaydi. Jumladan, uning izlanishlarida so'zlarning semantik va fonetik jihatdan eskirishi natijasida o'zining ifodaliligini yo'qotib muomaladan chiqarib yuborilishi to'g'risidagi fikrlarini eslatib o'tish joiz. Boshqacha qilib aytganda, so'zlar shu zaylda kommunikativlik jihatdan ortiqchalik kasb etadi. Bu esa tejamkorlik tamoyiliga ziddir va til tizimidan chiqib ketishga yuz tutadi. Ko'rinib turganidek, J.Vandries lingvistik tahlil doirasini biroz kengaytirib til tejamkorligi masalasining yanada chuqurroq o'rganilishiga zamin yaratadi.

Buning ustiga lisoniy o'zgarishlarda avlodlar almashinuvining ta'sirini tan olmagan F. de Sossyurdan farqli o'laroq, J.Vandries (I.A.Boduen de Kurtene va Y.D.Polivanovlar kabi) tildagi ushbu jarayonda turli avlodlarning ahamiyatiga alohida e'tiborni qaratadi.

Shuningdek, E.Burse ham tejamkorlik va notejamkorlik masalalarini bir biriga bog'lagan holda tahlil qiladi. Uning fikriga qaraganda, tilda sinonimlarning ko'pligi xotira faoliyatini qiyinlashtiradi, natijada tildagi sinonimlar fondining muayyan qisqarishi tendentsiyasi yuzaga keladi. Asta-sekin nisbatan qulayroq sinonimlar ortiqcha bo'lib borayotgan va tilning aktiv leksikasi tarkibidan chiqqan so'zlarning ma'no ottenkalarini ifodalay boshlashadi. Bundan kelib chiqadiki, E.Sepirning bir fikrni ikki va undan ortiq shakllar bilan ifodalashni tilning qobiliyati va boyligi sifatida qabul qilish kerak, degan g'oyasiga E.Burse shubha bilan qaraydi.

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida tejamkorlik/notejamkorlik masalasi N.M.Maxmudov, N.Maxkamov, A.N.Nurmonov tadqiqotlarida tahlilga tortilgan. A.Martine tilda doimo mavjud bo'lgan "barcha sathlarga xos lisoniy shakl ortiqchaligini" qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, notejamkorlik til hayotining zaruriy shartidir.

Tejamkorlik va notejamkorlikning bir birini taqozo etishi tejamkorlikning bir sathda (masalan, sintaksisda) va notejamkorlikning boshqa sathda - semantikada (mazmunda) voqelanish imkoniyati



mavjudligi orqali bevosita namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlar har ikkala sathda bo'laklarga bo'linish imkoniyati natijasida yuzaga keladi. Bundan ma'lum bo'ladi, tildagi tejamkorlik/notejamkorlik hodisalariga (umuman, yaxlit tilga) nisbatan struktura tushunchasining qo'llanilishiga to'la asos bor. A.Martining ta'kidlashicha, ayrim olimlar struktura atamasini "tildagi munosabatlarni tavsiflash andozasi

(modeli)" deb hisoblashsa, boshqalar strukturani tilning o'zidan qidirish zarurligini tasdiqlashadi. Biz esa bu masala yechimi yuzasidan A.Martining yondashuvi tarafdorimiz: "Tilning o'zida "struktura" degan narsa yo'q..., bunday ataladigan narsaning o'zi esa tilshunos tomonidan muayyan materialni tasniflash uchun o'ylab topilgan tavsif sxemasidan (a frame) bo'lak narsa emas". Struktura tushunchasi (bizning izlanishimizda - fonetik strukturalar) birinchi navbatda shunchaki tavsiflash vositasi sifatida emas, balki tanlangan lingvistik obyektning ontologik xususiyatlarini ochish uchun qo'llaniladi. Bu bilan 1) elementlar 2) ular orasidagi munosabat 3) aloqador yaxlitliklarning muayyan yig'indisi sifatida qaralayotgan mazkur lingvistik obyektning haqqoniy darajasini optimal shaklda ko'rsatishga erishiladi. Shu sababdan muayyan lingvistik obyektning umumiy tahlilini unga aloqador xususiyatlarining alohida sathlari - fonetik, semantik (leksik), morfologik, sintaktik sathlari nuqtai nazaridan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Tilni murakkab dinamikli tizim sifatida tushunish til o'zgarishlarining dastlabki shart-sharoitlarini kuzatishga imkon beradi. Bu o'zgarishlar tizimli strukturaga ega til tabiatining ildizida joylashgan bo'ladi. Mazkur yondashuv til evolyutsiyasiga oid umumiy tendentsiyalarni aniqlab olishda qo'l keladi. Jumladan, 1) til tizimining insonning kommunikativ va tafakkur faoliyatidagi o'zgarishlarga adaptatsiyasi va 2) alohida til tuzilmalari va til sathlaridagi korrelyativ o'zgarishlar orqali til tizimining o'z-o'zini boshqaruvi ushbu tendentsiyalarga misol bo'la oladi.

Tildagi o'zgarishlar shartlarini anglab olish uchun nutq faoliyatining quyidagi psixolingvistik qonuniyatlarini nazarda tutish zarur:

- 1) lisoniy birliklar semantikasining individual-psixologik o'zgaruvchanligi;
- 2) aytilgan fikrning muloqot jarayoniga daxldorligi va o'z navbatida bu daxldorlikning aytilgan gap semantikasida situativ o'zgarishni taqozo etishi;
- 3) nutq komponentlarining semantik diskretliligi, ularning o'zaro munosabati, o'zaro semantik o'zgarishi.

Natijada nutq faoliyati mazmun planining g'oyatda rang-barang variantliligi bilan xarakterlanadi. Bu esa o'z navbatida lisoniy siljishlar uchun, yakka shaxs nutqidagi bir martalik o'zgarishlarning til darajasidagi o'zgarishlarga o'tishi uchun zamin yaratadi.

Mazmun plani va ifoda planlarining muntazam turlanishi bu tilning kommunikativ tizimda qo'llaniladigan hayotiy ehtiyojidir. O'zgarish bu inson nutq faoliyatining faol tabiati sifatida namoyon bo'lib uning natijasida til doimiy ravishda bir shakldan boshqasiga ko'chib yuradi. Til strukturasi o'zgartiradigan nimaiki bo'lsa u avvalo, nutqda sodir bo'ladi.

**Xulosa.** Tilshunoslik fanining yetuk olimlari o'z asarlarida til evolyutsiyasi jarayonida tadrijiylik va vaqt ketma-ketligi mavjudligini qayd etgan holda tildagi o'zgarishlarni nutq tejamkorligi tamoyili bilan bog'laydi. Tilning to'xtovsiz rivojlanishda ekanligi va bu jarayonda leksik, fonetik va grammatik o'zgarishlar sodir bo'lishi til qonuniyatlarini belgilashda o'ta muhim hisoblanadi. Bunda til nutq jarayonida nafaqat jismoniy balki aqliy harakatlarni minimum darajaga keltirishga intiladi. Zero, lisoniy o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida insonning muloqot ehtiyojlari va jismoniy hamda aqliy harakatlarni minimum darajaga keltirishga intilish o'rtasida doimiy ziddiyat mavjud.

Tejamkorlik va notejamkorlikning bir birini taqozo etishi tejamkorlikning bir sathda (masalan, sintaksisda) va notejamkorlikning boshqa sathda - semantikada (mazmunda) voqelanish imkoniyati mavjudligi orqali bevosita namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlar har ikkala sathda bo'laklarga bo'linish imkoniyati natijasida yuzaga keladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Балли Ш. *Общая лингвистика и вопросы французского языка.* – М.: Изд-во иностр. лит., 1955. – 416 с.
2. Балли Ш. *Французская стилистика.* – М.: Изд-во иностр. лит., 1961. – 394 с.
3. Бархударов Л.С. *Структура простого предложения современного английского языка.* – М.: Высшая школа, 1966. – 200 с.
4. Блумфилд Л. *Язык.* – М.: Прогресс, 1968. – 608 с.
5. Бодуэн де Куртенэ И.А. *Избранные труды по общему языкознанию.* – М.: Изд-во АН, 1963, т.1. – 384 с.; т.2. – 391 с.



6. Есперсен О. *Философия грамматики*. – М.: Изд-во иностр. лит., 1958. – 404 с.
7. Мартине А. *Принцип экономии в фонетических изменениях*. – М.: ИИЛ, 1960. – 261 с.
8. Мартине А. *Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике, вып. III*. – М., 1963. – С.366-566.
9. Поливанов Е.Д. *Фонетические конвергенции // Вопросы языкознания*. – М., 1957. – №3. – С.77-83.
10. Поливанов Е.Д. *Статьи по общему языкознанию*. – М.: Наука, 1968. – 376 с.
11. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 286 б.
12. Сепир Э. *Язык: Введение в изучение речи*. – М.-Л.: Соцэкгиз, 1934. – 222 с.
13. Серебренников Б.А. *К проблеме сущности языка // Общее языкознание*. – М.: Наука, 1970. – С. 302-307.
14. Смирницкий А.И. *Синтаксис английского языка*. – М.: Изд-во иностр. лит., 1957. – 286 с.
15. Соссюр Ф. де. *Труды по языкознанию*. – М.: Прогресс, 1977. – 696 с.
16. Rasulov Zubaydullo Izomovich. (2022). *On the Basis of Information-Discursive Analysis. Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.621>
17. Rasulov, Z. (2023). *Lisoniy tejamkorlikning axborot ifodasidagi ortiqchalikka munosabati*. // *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). *извлечено от* [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10944](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10944)
18. Rasulov, Z. I. (2023). *The notion of non-equivalent words and realias in English and Uzbek languages*. // *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 35-40.
19. Rasulov, Z. (2023). *Принцип когнитивной экономии как важный фактор в передаче информации*. // *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). *извлечено от* [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10954](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10954)
20. Rasulov, Z. (2023). *Принципы экономии фонационной энергии*. // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 42(42).
21. Rasulov, Z. (2023). *Pedagogika va psixologiyada manipulyatsiya tushunchasi*. // *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 39(39). *извлечено от* [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10487](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10487)
22. Sulaymonbekovna, Q. N., & Raimovna, I. G. (2021). *Cognitive dissonance and pragmatic influence*. // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=136>
23. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). *Konseptual metaforalarning lingvomadaniy hamda kognitiv xususiyatlari va til taraqqiyotida tutgan orni*. // *Scientific Impulse*, 1(3), 594-600. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1055>
24. Kobilova, N. *Literary Psychology and the Principle of the Epic Image*. // *Journal NX*, 7(02), 306-309. <https://media.neliti.com/media/publications/342765-literary-psychology-and-the-principle-of-1cb9cf8a.pdf>.
25. Hikmatovna, A. N., & Kobilova, N. S. (2021). *Sociocultural aspects of linguoculture" clothing" in English and Uzbek languages*. // *Electronic journal of actual problems of modern science. Education and training*, 18-21. <https://khorezmscience.uz/article/1635783818.pdf>
26. Sulaymonbekovna, I.G.R.Q.N. (2021). *Cognitive dissonance and pragmatic influence*. // *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 902-908. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=136>